UO‘K: 37.013.42

O‘QUVCHILARNING TA’LIMDAGI MUVAFFAQIYATINI TA’MINLASHDA OTA-ONALARNING ROLI

A.M. Matkarimov

Maqolada o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlashda oila, ota-onalarning ishtiroki masalasiga doir adabiyotlar tahlil qilingan. Milliy ta’lim mazmunini takomillashtirish, maktab ta’limini isloh qilish, o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarni bajarishda ota-onalar bilan hamkorlik masalasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’limdagi muvaffaqiyat, oila, ota-ona, ta’limga bo‘lgan ijobiy munosabat, oiladagi ta’lim muhiti*.

В статье проанализирована литература по вопросу участия семьи и родителей в обеспечении успешности учащихся в образовании. Изучен вопрос сотрудничества с родителями при выполнении социально-педагогических задач, таких как совершенствование содержания национального образования, реформирование школьного образования, подготовка учащихся к самостоятельной жизни, формирование их навыков, необходимых для успеха в учебе.

Ключевые слова: *образовательная успешность, семья, родители, положительное отношение к образованию, образовательная среда в семье.*

Respublikamizda milliy ta’lim mazmunini takomillashtirish, maktab ta’limini isloh qilish, o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarning dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Buning uchun pedagogik nuqtayi nazardan o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘qitish metodikasi va ta’lim natijalarini baholash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo‘yicha islohotlar bilan bir qatorda, o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlashda ota-onalarning ishtirokini ta’minlashning samarali usullari ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarda dolzarb ilmiy masalalar qatoridan o‘rin olgan.

PISA, PILS, TIMMS kabi xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari va ularning turli davlatlardagi ilmiy tahlili asosida o‘quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi ularning ta’limdagi muvaffaqiyati bilan chambarchas bog‘liqligini, milliy ta’lim tizimi samaradorligi uning ijtimoiy jihatlarini hisobga olinishi va doimiy ravishda ta’lim tizimiga doir muammolar bilan birgalikda ijtimoiy masalalarni ham o‘rganib borishni taqozo etishini yaqqol ko‘rsatadi. Ta’limdagi ijtimoiy tengsizlikning sabablari xilma-xil va murakkab tushunchadir. Milliy ta’lim tizimi sohasiga doir ta’lim siyosati bu kabi ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega, ammo bu barcha ijtimoiy muammolarni hal qilinishda yagona yechim bo‘la olmaydi. Ta’limga doir ijtimoiy muammolarni umumta’lim maktablarining boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorligi, jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning taqsimoti hamda ta’limni moliyalashtirish kabi masalalar bilan o‘rganish barobarida ijtimoiy masalalarni hal yo‘llari ham oydinlashadi. Ta’lim sohasidagi vazirliklar, boshqarmalarga ta’lim muammolarining barchasini hal qiluvchi yagona institut deb qaramaslik lozim bo‘ladi.

Xalqaro baholash tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitali

rivojlanganligining mavjud va zaruriy holatini umumta'lim muassasalari o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganlik darajasi, ularning ta'lim olishidagi ijtimoiy-pedagogik jihatlarga bog'lagan holda aniqlaydi. Pedagogik amaliyotda xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishning samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda ta'limdagi islohotlarni rejalashtirishga bog'liq. Xalqaro baholash tadqiqotlarida o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy aspektlari ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholanadi. Mazkur mezonlarga quyidagilar kiradi:

– o'quvchining ijtimoiy kelib chiqishi;

– ta'lim olishning o'z hayotidagi ahamiyatini tushunish;

– "umumta'lim muassasasi – oila" hamkorlik mexanizmining samaradorligi;

– oilalarda ta'limiy qadriyatlarning rivojlanganligi;

– ijtimoiy, akademik va madaniy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanish holati [1. B. 4].

Ota-onalar tomonidan farzandlarining ta'limdagi muvaffaqiyati uchun maqbul shart-sharoit yaratib berilishi dunyoning barcha davlatlarida umume'tirof etilgan qadriyat, burch sifatida qaraladi. Ota-onalarning mazkur vazifani professional darajada bajarishini qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-pedagogik zarurat hisoblanadi. Pedagogik amaliyotda ilmiy jihatdan asoslangan hamda „ota-onalik kompetensiya"sini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlari, ijtimoiy loyihalarga ehtiyoj mavjud. Shuningdek, barcha ta'lim muassasalarida ota-onalar bilan konstruktiv va muloqotga yo'naltirilgan hamkorlik uchun, ota-onalar bilan ishlashni miqdor va sifat jihatdan rivojlantirish uchun yanada ko'proq ijtimoiy-pedagogik faoliyatga zarurat mavjud.

Ko'plab pedagogik-empirik tadqiqotlar oiladagi ijtimoiylashuv jarayoni farzandlarning yutuqlariga ta'sir ko'rsatadigan eng katta omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi. O'quvchilarning matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholovchi xalqaro TIMSS (*Trends in International Mathematics and Science Study*) tadqiqoti hisobotida quyidagi xulosaviy fikr keltirilgan: o'quvchilarning tadqiqotda berilgan topshiriqlarni bajarishidagi farqning 20–25 foizi o'quvchilar oilasining ijtimoiy kelib chiqish xususiyatlari bilan izohlanadi [2. B. 12]. Bundan oilaning ta'lim tizimi samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasi, o'qituvchilar malakasi yoki maktablarning boshqaruv mustaqilligi kabi masalalardan muhimroq ekanligini anglash mumkin. Boshqa bir ilmiy tadqiqotda esa o'quvchilar akademik ko'rsatkichlarining uchdan ikki qismi oila bilan bog'liq, uchdan bir qismi esa maktab bilan bog'liq omillar ekanligi qayd etilgan. Mazkur ikki ilmiy tadqiqot natijalari ko'plab bahsli fikrlarni yuzaga keltiradi. Jumladan, "sifatli" maktab tizimi qanday bo'lish kerak ekanligi, ta'limga ota-onalar munosabatining mavjud holati kelib chiqish sabablari va oqibatlari haqida savollarni muhokama qilish ijtimoiy-pedagogik zarurat ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyatda o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati umumta'lim maktablariga bog'liq degan fikr shakllangan bo'lsa-da, xalqaro baholash tadqiqotlari hamda ilmiy tadqiqotlar oilaning, ota-onaning roli ko'proq ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ilmiy tadqiqotlar oila va ota-onaning roli zamonlar almashinuvi ta'sirida ham o'zgarmaganligini ko'rsatadi. J.Kolemanning "Ta'lim olishdagi imkoniyatlar tengligi" [3. B. 19] hamda B.Ploudenning "Bolalar va ularning boshlang'ich maktablari" [4. B. 204] deb nomlangan tadqiqot ishlarida oiladagi ta'limga doir faoliyatni to'g'ri tashkil etish, oiladagi ijtimoiy, madaniy hamda akademik resurslarning muhim ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur tadqiqot ishlarida ta'limda o'quvchilar muvaffaqiyatining deyarli 50 % i oila muhitiga bog'liqligi keltirib o'tilgan. Yana bir ilmiy tadqiqot ishida o'quvchilarning ta'lim olishiga oilaviy sharoitning ta'siri maktab, o'qituv-

chilar, o‘quv va uslubiy jarayonlar ta’siridan ko‘ra ko‘proq ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotda o‘quvchilarning oila tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ularning genetik xususiyatlaridan ham ko‘proq ta’sirga ega ekanligi qayd etilgan [5. B. 147]. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatini genetik xususiyatlar bilan qat’iy bog‘lamaslik kerak, degan xulosaga olib keladi.

Oila, maktabgacha ta’lim muassasasi va maktabning bola rivojlanishiga, ta’limdagi muvaffaqiyatiga ta’sirini baholashga doir umumlashtirilgan ilmiy tadqiqot 2005-yilda V.Titze, H.Rossbax va K.Grener tomonidan o‘tkazilgan [6]. Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta’lim tashkilotining bola rivojlanishiga ta’siri oiladagi muhitning ta‘siriga nisbatan kam ekanligi aniqlangan. Bolaning maktabga kirishdan oldingi rivojlanish dispersiyasi 6,3% dan 21,9% gacha bo‘lganligi oiladagi ta’limiy muhitning ta‘siri bilan izohlanadi. 3,6% dan 8,4 % gacha esa maktabgacha ta’lim tashkiloti hissasiga to‘g‘ri keladi. Bola rivojlanishiga ta’sir qilish borasida oila va maktab ulushining yuqoriligi boshlang‘ich ta’limda, ikkinchi sinfning so‘ngida ham deyarli o‘zgarishsiz qolgan.

O‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatini baholash hamda unga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashda turli tadqiqot metodlaridan foydalaniladi. Shunday tadqiqot metodlaridan biri komparativistik metod bo‘lib, ushbu metod asosida maktab va uydagi ta’lim („*homeschooling*“) qiyosiy tadqiq qilingan. Uydagi ta’lim sharoitida o‘qigan o‘quvchilar maktabda o‘qiyotgan tengdoshlari bilan ta’limdagi muvaffaqiyati teng, ba’zi natijalar bo‘yicha esa uydagi ta’limning ustunlik jihatlari yaqqol sezilib turadi. Ilmiy tadqiqotda uyda ta’lim olish qarorini avvalambor ziyoli ota-onalar qabul qilganligi, ular moliyaviy jihatdan mustaqil, “ota-onalik kompetensiyasi” yuqori darajada rivojlangani, farzandi uchun har tomonlama o‘rnak bo‘ladigan ota-onalar ekanligi qayd etilgan [7. B. 43].

An’anaviy maktab o‘quvchilari va uyda ta’lim olgan o‘quvchilarning oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirishi statistik jihatdan teng nisbatga ega [8. B. 49]. Tadqiqotlardan birida an’anaviy maktab o‘quvchilari va uyda ta’lim olganlarning ijtimoiy kompetensiyalari rivojlanganligi qiyosiy tahlil qilingan. Uyda ta’lim olgan o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanganligi qoniqarli darajada ekanligi ko‘rsatilgan. Garchi bu o‘quvchilar o‘z tengdoshlari bilan kam muloqotda bo‘lishsa ham, ularda turli yoshdagi insonlar bilan muloqot qilishda muammoli vaziyatlar yuzaga kelmagan. Shuningdek, turli fikr va dunyoqarashga ega insonlar bilan hamkorlik qilish natijasida ularda muloqot va ijtimoiy tajribalar to‘planib borgan [9. B. 119]. Bir necha yildirki Amerika Qo‘shma Shtatlarda ta’lim sohasida yangi an’analar rivojlanib kelmoqda. Ko‘plab ota-onalar farzandlarini maktabga yubormasdan, uyda o‘qitishi ommalashib bormoqda. AQSh Milliy tadqiqot instituti tomonidan maktab yoshidagi o‘quvchilarning 5,56 % i (3,1 million) 2021–2022-o‘quv yilida uydagi ta’lim bilan qamrab olingan [10. B. 24]. Shuningdek, bu raqam yildan yilga ortib borishi va u 7% dan 15% gacha bo‘lishi taxmin qilinadi.

Pedagogik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat davlatlarning oilalar bilan bog‘liq huquqiy-me’yoriy asoslarida oilada tarbiyaning barcha jihatlari qamrab olingan bo‘lsa-da, oiladagi ta’limning ko‘p jihatlari e’tibordan chetda qolganligini kuzatish mumkin. Jumladan, oilada farzandlarning uy-ro‘zg‘or ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishining huquqiy asoslari, farzandlar sog‘lig‘i, bo‘sh vaqtini tashkil etish va boshqa masalalar atroflicha qamrab olingan bo‘lsa-da oiladagi ta’lim muhitiga doir jihatlar tor doirada talqin etilganligini kuzatish mumkin. Oiladagi ta’lim muhiti ahamiyati va ijtimoiy zarurati yuqori ekanligini ta’kidlagan holda, oiladagi ta’lim muhiti ham oila, farzand va jamiyat uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini qayd etish lozim. Jamiyatda ta’lim masalasi, shun-

dan kelib chiqqan holda ta’lim muassasalarining funksional vazifasi degan fikr shakllanib qolgan. Oilaning ta’lim funksiyalarini huquqiy jihatdan me’yorlashtirish orqali farzandlarning ta’limdagi muvaffaqiyati sezilarli ravishda o‘sishiga erishish mumkin.

Ta’lim va tarbiya oilalarda qadriyat darajasiga ko‘tarilgandagina oilada farzandlarning har tomonlama kamol topishiga erishiladi. Ko‘plab oilalarda tarbiya qadriyat darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, ta’lim ba’zi holatlarda e’tibordan chetda qoladi. Bu esa bolaning til o‘rganishi, aqliy rivojlanishi, o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabati rivojlanishida muammolarni keltirib chiqaradi. Natijada ularda o‘qishga (savodxonlikka) intilish hamda ta’lim orqali ijobiy natijalarga erishish motivatsiyasi kamayib boradi. Quyida pedagog olim M.R.Tekstor tomonidan taklif etilgan oilaning ta’limiy funksiyasini rivojlantirishga oid faoliyat turlari keltirilgan [11. B. 155] (1-jadval).

1-jadval

Oilaning ta’limiy funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari

T/r	**Oilaning ta’limiy funksiyasi**	**Mazmuni**
1.	Til va muloqotni rivojlantirish	Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi muloqotning mazmuni va sifatining oshirilishi (muloqotda qo‘llaniladigan so‘zlar, atamalarni to‘g‘ri qo‘llash va tushuntira olish, ilmiy, hayotiy-amaliy faoliyatdagi ahamiyatini tushuntira olish).
2.	Atrof-olamga doir dastlabki ilmiy tushunchalarni rivojlantirish	Farzandlarini dunyoni, atrof-olamni o‘rganishda, anglab yetishda va jamiyatda ijtimoiy munosabatlar o‘rnatishda qo‘llab-quvvatlash.
3.	Shaxsiy rivojlantirish	Oilada ta’lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega o‘yinlar o‘ynash, kitobxonlikka o‘rgatish, farzandining ilk yoshidan boshlab ovoz chiqarib kitob o‘qib berish, uy sharoitida kichik tajribalar o‘tkazish, birgalikda filmlar tomosha qilish, kitoblar, telefilmlar, fan yoki siyosat haqida suhbatlashish.
4.	“Butun hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirish	Farzandlarining o‘qish-o‘rganishdagi yutuqlarini rag‘batlantirish orqali ularni maktabgacha ta’lim muassasasiga tayyorlash, maktabda o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirish.
5.	Ijtimoiy-ruhiy jihatdan hamda kasbga yo‘naltirishda qo‘llab-quvvatlash	Maktabda va sinfda sodir bo‘layotgan voqealar haqida muntazam muloqot o‘tkazish, uy vazifalarini tayyorlashda qo‘llab-quvvatlash, doimiy ravishda kelgusi rejalari haqida suhbatlashish va rejalarini amalga oshirish uchun qo‘llab-quvvatlash.
6.	Uzluksiz rivojlanishini ta’minlash	Boshqa ota-onalar va o‘qituvchilar bilan doimiy aloqada bo‘lish, farzandining ta’lim sohasida qo‘shimcha ehtiyojlarini qondirish uchun maktabdan tashqari muassasalar bilan doimiy aloqada bo‘lish va qo‘llab-quvvatlash.

Yuqoridagi faoliyat turlari oilada ta’lim muhitini rivojlantirish va ota-onalarning ta’limiy funksiyasini oshirish uchun maxsus kurslar ishlab chiqilishini taqozo etadi. Bola rivojlanishining dastlabki olti yilida ota-onalar uchun bunday kurslarning ahamiyati katta. Bu davrda bola maktabga tayyorgarlik ko‘radi va uning kognitiv, motorik, hissiy-emotsional jihatdan rivojlanishi uchun muhim davr hisoblanadi. Yosh ota-onalarning “ota-onalik kompetensiya”sini rivojlantirishda bunday maxsus kurslarning o‘rni katta. Farzandining oilada ta’lim va tarbiya olishini tashkil etish borasida yosh ota-onalarda bilim va ko‘nikmalar qoniqarli darajada bo‘lmaydi.

Xalqaro baholash tadqiqotlari keng qamrovli bo‘lib, ishtirokchi davlatlarga milliy ta’lim negizida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish uchun statistik ma’lumotlar taqdim etadi. Ilmiy tadqiqotlarning metodologiyasidan kuzatish mumkinki, asosan komparativistik metod keng qo‘llaniladi. Shuningdek, matematik-statistik tahlil metodi ham keng tarqalgan. Mavjud hisobotlar, me’yoriy hujjatlar hamda shu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish ilmiy xulosalar shakllantirishga asos bo‘ladi.

O‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyati yuqori ko‘rsatkichga ega emasligi milliy ta’lim tizimi va oila hamkorligiga doir muammolarning yetarli darajada hal qilinmaganligi bilan izohlanadi. Bu masala milliy ta’lim tizimining siyosiy maqsadi sifatida shakllanishi zarur. Shuningdek, jamiyatda oilalarning rivojlanishi oila joylashgan hudud bilan ko‘p jihatdan bog‘liq. Shunga ko‘ra, oilalarning rivojlanishi kommunal siyosatning aniq maqsadga yo‘naltirilishiga, hududda yashovchi aholi talab-istaklari asosida shakllantirilgan chora-tadbirlarning samarali tatbiq etilishiga bog‘liq bo‘ladi. Milliy ta’lim tizimi, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish tizimi hamda pedagog olimlar hamkorligida oilaning ta’limiy-tarbiyaviy funksiyasini rivojlantirish uchun umummilliy dasturlar ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Oiladagi ta’lim va tarbiya jarayoniga ko‘maklashish hududdagi oilalar bilan ishlash muassasalari, kattalar ta’limi markazlari, yoshlar markazlari, bolalar bog‘chalari, maktablar, diniy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Oiladagi ta’lim muhiti bilan bog‘liq muammolardan biri ota-onalarning pedagogik kompetensiyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, jamiyatda farzand tarbiyasi va ta’limi bo‘yicha professional ta’lim dasturlarining kamligi yoki ularning mazmun jihatdan sifat darajasi qoniqarli emasligidir. Buning natijasida ota-onalar internet tarmog‘i orqali, o‘z tanishlari orqali, tajriba almashish orqali istagan ma’lumotlarini topishga harakat qiladi. Yana bir jihati, oiladagi ta’lim muhitini rivojlantirishga doir ma’lumotlar oiladagi tarbiyaviy muhitni rivojlantirishga qaratilgan ma’lumotlarga nisbatan kamroq uchraydi. Ota-onalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish institutsional va professional yondashuvni taqozo etadi.

Boshqa tomondan ota-onalarning ko‘p vaqtini mehnat faoliyati bilan o‘tkazishi, farzandlari uchun kam vaqt ajratishi ta’lim tizimi oldiga yangidan-yangi vazifalarni yuklamoqda. Bolalar va o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish va bu orqali ularning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlash davlat siyosati darajasida hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalar qatoriga kiradi. Jumladan, maktablarda asosiy dars mashg‘ulotlaridan so‘ng uy vazifalarini tayyorlash va ma’lum bir dastur asosida qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil etish, shu maqsadda professional kadrlarni tayyorlash, hududdagi barcha oilalar vaziyatidan kelib chiqqan holda ularni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va loyihalarini shakllantirish shular jumlasidandir.

Oila muhitida ota-onalar farzandlarining ilk yoshidan boshlab ularning rivojlanishi bilan intensiv tarzda shug‘ullanadilar. Maktabga qabul qilish vaqtida barcha bolalarda deyarli aqliy rivojlanish holati nisbatan teng bo’lsa-da, ulardagi ta’limga bo‘lgan motivatsiyaning farqi sezilarli katta bo‘ladi. Oilada shakllangan ijobiy ta’lim muhitida katta bo‘lgan bola maktabdagi ta’lim muhitiga oson moslashadi, o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ta’limiy muhit qoniqarli darajada shakllanmagan oilada ulg‘aygan bolada boshqa tengdoshlariga nisbatan ta’limga motivatsiya yetarli bo‘lmaganligi uchun o‘qituvchi tomonidan individual tartibda qo‘llab-quvvatlanishga zarurat bo‘ladi. Sinfdagi o‘quvchilarning oilalaridagi ta’limga bo‘lgan ijobiy munosabatning o‘zaro farqi yillar davomida ularning o‘zlashtirishi hamda muvaffaqiyatidagi farqqa olib keladi [9. B. 119]. O‘quvchilarning o‘smirlik davrida ularning bilim va qobiliyatlaridagi farqlar kattalashib, qat’iylashib boradi. Oilalardagi

“ta’lim muhitining zaifligi”ga oilaning moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy kapitali bilan bog‘liq omil sifatida qaraladi.

Oiladagi ta’lim muhitini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat institutsionallashgan holda quyidagi ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishi maqsadga muvofiq:

– ota-onalar uchun kurslar, ma’ruzalar, oilalar uchrashuvi;

– ota-onalar tashabbuslari asosida shakllantirilgan ta’limiy ahamiyatga ega tadbirlar (sayohatlar, uchrashuvlar, loyihalar va boshqalar);

– turli tashkilot, muassasalar hamkorligidagi tadbirlar (tibbiyot muassasalari, mahalla va oilalar hamkorligi);

– o‘z-o‘ziga yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan, maslahat berish va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan tashkilotlar;

– ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar, flayerlar orqali oilalarni qo‘llab-quvvatlovchi media tashkilotlar [11. B. 156].

PISA xalqaro baholash tadqiqotida o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillar keng tahlil qilinadi. Ota-onasi oliy ta’lim muassasasini yakunlagan o‘quvchilarning oliy ta’limda o‘qishni davom ettirish holati ota-onasi oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan tengdoshlariga nisbatan to‘rt barobar yuqori ekanligi ko‘rsatilgan. Yana bir muhim jihati, maktabda eng yaxshi natijalarga erishgan, ota-onasi oliy ma’lumotli bo‘lmagan o‘quvchilar maktabni yakunlagach hayotda muvaffaqiyatli karyera qilishga qiynalishi, o‘zini yuqori natijalar uchun munosib ko‘rmasligi kabi ijtimoiy-psixologik holatlar tadqiqotda qayd etilgan. Shuningdek, ota-onalarda ta’lim tizimi va qonunchiligiga doir bilimlarning yetishmasligi ham farzandlarining ta’limdagi muvaffaqiyatsizligiga sabab bo‘ladi [1. B. 127].

Globallashib borayotgan davrda har bir davlat yosh avlodning kognitiv resurslaridan to‘laqonli foydalana olgandagina raqobatbardosh bo‘lib qolishi mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning qobiliyati, iqtidorini maqsadli yo‘naltirib, jamiyatda faol fuqaroga aylantirish umummilliy vazifa sifatida qaralishi kerak bo‘ladi. Shu nuqtayi nazaridan qaraganda, oilaning roli ikki jihat bilan tavsiflanadi: oilalar tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlanishi lozim; oilada farzandlarning ta’lim va tarbiya olishini professional jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi tizimni shakllantirish lozim.

Adabiyotlar:

1. OECD (2019), PISA 2018 Ergebnisse (Band I): Was Schülerinnen und Schüler wissen und können, PISA, wbv Media, Bielefeld. [Online]. URL: https://doi.org/10.1787/1da50379-de (Date of access: 10.07.2023)

2. *Mullis I.V.S., Martin M.O., Goh Sh., Cotter K.* TIMSS 2015 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science. Retrieved from Boston College, 2016. TIMSS & PIRLS International Study Center [Online]. URL: website: http://timssandpirls.bc.edu/timss2015/encyclopedia/ (Date of access: 04.07. 2023)

3. *Coleman, James S*. Equality of educational opportunity. Integrated education 6.5. – Washington: U.S. Government printing office, 1966. – 749 p.

4. *Plowden B.* (Hrsg.): Children and Their Primary Schools. Vol. 1. London: Her Majesty’s Stationery Office, 1967. – 555 p.

5. *Fraser B.J., Walberg H.J., Welch W.W., & Hattie J.A*. Syntheses of Educational Productivity Research. // International Journal of Educational Research, 1987. – Vol.11. – No 2. Pp. 147–251.

6. *Tietze, W., Roßbach, H.-G., Grenner K*. Kinder von 4 bis 8 Jahren. Zur Qualität der Erziehung und Bildung in Kindergarten, Grundschule und Familie. –Weinheim: Beltz Verlag, 2005. – 306 p.

7. *Burns J.* The Correlational Relationship between Homeschooling Demographics and High Test Scores. Manuskript 1999. [Online]. URL: http://searcheric.org/ericdc/ED439141.htm (Date of access: 14.07.2023)

8. Eric Development Team: Homeschooling. ERIC Digest ED457539, 2001. [Online]. URL: http://searcheric.org/ericdc/ED457539.htm (Date of access: 16.07.2023)

9. *Krumm V*. Über die Vernachlässigung der Eltern durch Lehrer und Erziehungswissenschaft – Plädoyer für eine veränderte Rolle der Lehrer bei der Erziehung der Kinder. // Zeitschrift für Pädagogik, 1996. Sonderheft 34. – Pp. 119–140.

10. National Center for Educational Statistics: 1.1 Million Homeschooled Students in the United States in 2003. Issue Brief NCES 2004-115, 2004. [Online]. URL: https://nces.ed.gov/pubs2004/2004115.pdf (Date of access: 17.07.2023)

11. *Textor M.R.* Die Bildungsfunktion der Familie stärken: Neue Aufgabe der Familienbildung, Kindergärten und Schulen? // Nachrichtendienst des Deutschen Vereins für öffentliche und private Fürsorge, 2005. 85 (5). – Pp. 155–159.

12. *Krumm V*. Schulleistung – auch eine Leistung der Eltern. Die heimliche und die offene Zusammenarbeit von Eltern und Lehrern und wie sie verbessert werden kann. In: Specht W., Thonhauser J. (Hrsg.): Schulqualität. – Innsbruck, 1995. – Pp. 256–290.

THE ROLE OF PARENTS IN ENSURING STUDENTS' SUCCESS IN EDUCATION

Akramjon M. Matkarimov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2023. 6(74). 25–32.

[1]Research Institute of Family and Gender, Tashkent, 100000, str. Istiqlol, 51 (Uzbekistan). E-mail: mvaoiti@exat.uz

Keywords: international assessment research, pedagogical research, family, parents, educational environment, school.

The article highlights the importance of socio-pedagogical tasks, such as improving the content of national education, reforming school education, preparing students for independent life and forming skills necessary for success in education. The aim of the article is the analysis of the research work on the participation of the family and parents and its importance for the students' success in education. The analysis was made on the basis of scientific literature and articles, analysis of statistical data on the topic and analysis of reports of international evaluation studies. The scientific analysis of the results of international assessment studies such as PISA, PILS, TIMMS shows that the social background of students is closely related to their success in education, the effectiveness of the national education system, the consideration of its social aspects and the constant problems with the education system. clearly shows that it is necessary to study social issues together. As a result of the analysis, the role of parents in education was characterised by two aspects: strengthening the support of families by the state and society, and the need for a systematic and professional approach. Based on the analysis of scientific studies on the participation of parents in ensuring the success of students in education, it is concluded that the participation of parents is of crucial importance in the national task of transforming the abilities and talents of students into active citizens in society.

References:

1. OECD (2019). PISA 2018 Ergebnisse (Band I): Was Schülerinnen und Schüler wissen und können, PISA, wbv Media, Bielefeld. [Online]. URL: https://doi.org/10.1787/1da50379-de (Date of access: 10.07.2023)

2. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Goh, Sh., Cotter, K. (2016) TIMSS 2015 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science. Retrieved from Boston College. TIMSS & PIRLS International Study Center [Online]. URL: website: http://timssandpirls.bc.edu/timss2015/encyclopedia/ (Date of access: 04.07.2023)

3. Coleman, James S. (1966) Equality of educational opportunity. Integrated education 6.5. Washington: U.S. Government printing office.

4. Plowden, B. (1967) (Hrsg.): Children and Their Primary Schools. Vol. 1. London: Her Majesty's Stationery Office.

5. Fraser, B.J., Walberg, H.J., Welch, W.W., & Hattie, J.A. (1987) Syntheses of Educational Productivity Research. *International Journal of Educational Research*. Vol.11. No 2. Pp. 147-251.

6. Tietze, W., Roßbach, H.-G., Grenner, K. (2005) Kinder von 4 bis 8 Jahren. Zur Qualität der Erziehung und Bildung in Kindergarten, Grundschule und Familie. –Weinheim: Beltz Verlag.

7. Burns, J. (1999) The Correlational Relationship between Homeschooling Demographics and High Test Scores. Manuskript 1999. [Online]. URL: http://searcheric.org/ericdc/ED439141.htm (Date of access: 14.07.2023)

8. (2001) Eric Development Team: Homeschooling. ERIC Digest ED457539. [Online]. URL: http://searcheric.org/ericdc/ED457539.htm (Date of access: 16.07.2023)

9. Krumm, V. (1996) Über die Vernachlässigung der Eltern durch Lehrer und Erziehungswissenschaft – Plädoyer für eine veränderte Rolle der Lehrer bei der Erziehung der Kinder. *Zeitschrift für Pädagogik*. Sonderheft 34. Pp. 119-140.

10. (2004) National Center for Educational Statistics: 1.1 Million Homeschooled Students in the United States in 2003. Issue Brief NCES 2004-115. [Online]. URL: https://nces.ed.gov/pubs2004/2004115.pdf (Date of access: 17.07.2023)

11. Textor, M.R. (2005) Die Bildungsfunktion der Familie stärken: Neue Aufgabe der Familienbildung, Kindergärten und Schulen? *Nachrichtendienst des Deutschen Vereins für öffentliche und private Fürsorge* . 85 (5). Pp. 155-159.

12. Krumm, V. (1995) Schulleistung – auch eine Leistung der Eltern. Die heimliche und die offene Zusammenarbeit von Eltern und Lehrern und wie sie verbessert werden kann. In: Specht W., Thonhauser J. (Hrsg.): Schulqualität. Innsbruck. Pp. 256-290.

Muallif haqida ma'lumot:

MATKARIMOV Akramjon Muxtorovich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti. E-mail: akramjon14@list.ru